



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI***(2019 yil yanvar-fevral)*

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha joriy yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 734,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,2 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 110,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 82,3 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 623,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 1,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 35,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,3 %) tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**

2018 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri, Beruniy, Chimboy va Qo'ng'iro't tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan 31,0 %), Beruniy (10,2 %), Xo'jayli (9,0 %), To'rtko'l (8,5 %), va Qo'ng'irot (6,7 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,3 %ga o'sdi va 110,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,1 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 623,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,9 %ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,9 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil  
yanvar-fevral




2019 yil  
yanvar-fevral



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



■ Kichik tadbirkorlik  
■ Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko`l (99,6%), Qorao`zak (99,5%), Kegeyli (99,5%), Nukus (99,2%) va Taxtako`pir (99,0%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (38,8%), Taxiato`sh (19,8%) va To`rtko`l (10,0%) tumanlarida kuzatilgan.

### **Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>110 763,8</b>	<b>182,3</b>	<b>623 807,3</b>	<b>101,9</b>
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	2 842,3	102,9	45 904,7	105,6
Beruniy	1 720,4	147,2	73 086,6	106,7
Qonliko`l	74,7	4,8 m.	18 784,5	105,1
Qorao`zak	123,6	72,4	24 272,3	105,5
Kegeyli	106,6	1,8	21 120,7	144,9
Qo`ng`irot	2 284,7	3,9 m.	46 853,6	102,3
Mo`ynoq	135,3	136,7	4 885,0	103,1
Nukus	119,0	99,8	14 316,1	104,9
Taxiato`sh	3 414,7	84,2	13 847,6	110,7

Taxtako`pir	179,1	106,7	18 638,3	104,6
To`rtko`l	6 278,6	103,6	56 294,0	105,2
Xo`jayli	1 687,9	4,0 m.	64 378,6	103,3
Chimboy	2 370,5	9,1 m.	25 724,4	101,4
Shumanay	197,6	2,9 m.	15 142,3	104,3
Ellikqal`a	957,5	10,6 m.	41 323,8	103,2
Nukus sh.	88 271,2	2,3 m.	139 234,9	90,1

2019 yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo`yicha aholi jon boshiga 395,8 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,6 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-fevral oylarida o`tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o`sinh qayd etilib, eng yuqori ko`rsatkichlar Nukus shahri (726,9 ming so`m), Xo`jayli (548,7 ming so`m) va Taxtako`pir (472,8 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Mo`ynoq (161,4 ming so`m), Kegeyli (238,2 ming so`m) va Taxiatosh (238,4 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich respublika tumanlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning mos davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>395,8</b>	<b>107,6</b>
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	252,1	103,7
Beruniy	402,6	105,3
Qonliko`l	377,2	104,2
Qorao`zak	467,4	104,2
Kegeyli	238,2	103,5
Qo`ng`irot	385,1	104,6
Mo`ynoq	161,4	102,5
Nukus	297,0	102,9
Taxiatosh	238,4	102,9
Taxtako`pir	472,8	104,0
To`rtko`l	300,4	103,2
Xo`jayli	548,7	104,1
Chimboy	245,4	108,5
Shumanay	276,9	104,2
Ellikqal`a	273,8	103,3
Nukus shahri	726,9	116,2

Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,6 %ni tashkil etib, 26,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


### **QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINIING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*(2019 yil yanvar-fevral)*

Yil boshidan respublika bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 177,6 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 3,9 %ga o`tdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko`ra, 94,9 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 82,4 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 53,4 %ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichni tumanlar bo`yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qo`ng`irot, Qorao`zak, Qonliko`l, Mo`ynoq, Taxtako`pir, Ellikqal`a va Nukus tumanlarida 100% ni tashkil etgan.

#### **Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 46,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Nukus shahri (39,0%), Xo'jayli (96,8%) va To'rtko'l (20,4%) tumanlarida kuzatildi.

**Tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	Jami (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>177 602,2</b>	<b>103,9</b>	<b>82 733,1</b>	<b>148,3</b>	<b>94 869,1</b>	<b>82,4</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	1 133,4	85,6	83,0	169,4	1 050,3	82,4
Beruniy	7 229,4	82,5	-	-	7 229,4	82,5
Qonliko`l	1 518,8	82,5	-	-	1 518,8	82,5
Qorao`zak	272,3	82,4	-	-	272,3	82,4
Kegeyli	68,2	79,6	0,3	10,0	67,9	82,1
Qo`ng`irot	2 699,7	82,2	-	-	2 699,7	82,4
Mo'ynoq	94,0	82,1	-	-	94,0	82,1
Nukus	8 524,0	82,1	-	-	8 524,0	82,1
Taxiatosh	3 179,6	82,6	186,1	82,6	2 993,5	82,6
Taxtako`pir	1 229,6	82,3	0,1	1,7	1 229,5	82,7
To`rtko'l	5 019,1	86,3	1 024,7	106,3	3 994,4	82,3
Xo'jayli	46 826,9	155,6	45 325,7	160,4	1 501,2	82,3
Chimboy	2 305,4	94,6	293,0	137,7 k	2 012,4	82,7
Shumanay	21,5	66,1	2,3	25,3	19,2	82,1
Ellikqal`a	5 713,3	82,2	-	-	5 713,3	82,2
Nukus sh.	91 767,1	97,5	35 817,8	136,5	55 949,3	82,4



Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Shumanay (66,1 %) tumanida qayd etildi.